

MUNDARIJA

EXACT AND NATURAL SCIENCES		
Khujayev L.Kh.	Nonlinear inverse problems for the system of poroelasticity equations	3
Raxmatova N.J.	Analysis of the 1D fractional diffusion equation with initial-boundary problem	16
Hasanov I. G.	Structural changes in agriculture: problems of modernization and ways of solvation	22
LINGUISTICS		
Юлдашева Д.Н.	Ўзбек тилининг софлигини сақлашга масъулмиз	27
Irgasheva F.B.	Lingvokulturologiyaning tarixiy bosqichlari va ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari	31
Norova M.F.	Phonopragmatic characteristics of apocope	35
Ruzieva M. Kh.	Clinical features of the human linguistic system	38
Sirojova Z.N.	Ingliz tilidagi qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlar sinkretizmining funksional tadqiqi	43
Subxonova M.O.	Lingvomadaniy birliklarning do'stlik haqidagi ingliz va o'zbek maqollarida ifodalanishi	48
Sulaymanova M.Sh.	The role of national values in teaching the native language	52
Xamdamova G.X.	Maqollarning nominativ-semantik xususiyatlari	57
Xojiyeva M.Y.	Shaxs semali leksemalar valentligi va so'z birikmasi	61
Yokubova Sh.Y.	Poetik nutqda metaforik birikmalar	65
Зиёдуллаев А.Р.	Эпонимларнинг мавзуний таснифи	70
Наширова Ш.Б.	Инглизча-ўзбекча ва ўзбекча-инглизча лугатлар учун кўп маъноли сўзларни танлаш мезонлари	75
Рўзиев Я.Б.	Ўзбек тилида биринчи тур ўзлаштирмалик ва гап	80
Salixova N.N.	Ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan undovlarning ma'no turlari	86
Safarova M.Z.	Etnonimiyaning o'rganilishi	90
Тўраева Д.М.	Пунктуацияда меъёр ва янгича аъъаналарнинг пайдо бўлиши	98



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

5/2022

5/2022

Qo`shma gapdagi barcha ergash gaplar gap bo`laklaridan birining vazifasini bajaradi: ega, predikat, hol, to`ldiruvchi yoki aniqlovchi. Tobe ergash gaplar yuqorida sanab o`tilgan gap a'zolari bilan bir xil savollarga javob beradi.

Ingliz tilida ergash gaplarning quyidagi turlari mavjud: ega ergash gaplar, kesim ergash gaplar, to`ldiruvchi ergash gaplar, atributiv gaplar; hol ergash gaplar va ular yana kichik guruhlariga bo`linadi.

Qo`shma gaplarda sintaktik munosabatlarning sinkretizmi deganda biz bir murakkab sintaktik qurilmada bir necha oppozitsiya hosil qiluvchi qarama-qarshi munosabatlarning birga qo`llanilishi deb ataymiz.

ADABIYOTLAR:

1. Sirojova Z. (2022). *Syncretism of syntactical relations in uzbek complex sentences*. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(11), 119–122. *извлечено от* <https://www.in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4694>
2. Nasriddinova S. Z. (2022, April). *Classification of syntactic relations in compound sentences*. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 121-123).
3. Nasriddinova S. Z. (2021). *Functional study of syntactical relations of compound sentences in uzbek linguistics*. *International Journal on Integrated Education*, 4(5), 125-128. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/1863>
4. Qosimova N. (2021). *Tarjima jarayonida diskurs tahlilining roli*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 1(1). *извлечено от* http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2164
5. Qosimova N. (2022). *Замонавий лингвистика нуқтаи назаридан парадигмалар моҳияти ва уларнинг кўчиш сабаблари*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). *извлечено от* http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5808
6. Ubaydullayeva D. (2022). *English language systems and problems in teaching them*. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(11), 123–130. *извлечено от* <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/4695>
7. Subxonova M. (2022). *Роль языка и культуры в лингвокультурологическом анализе английских и узбекских пословиц*. *Центр научных публикаций (buxdu.Uz)*, 8(8). *извлечено от* http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5895
8. Izotov R.Z., & Fazliddinova, U. D. (2021, November). *The Problems of Second Language Acquisition and Writing in Teaching English Language*. In "Online-conferences" platform (pp. 229-233).
9. Бабайцева В.В. Место переходных явлений в системе языка (на материале частей речи) // *Переходность и синкретизм в языке и речи*. -М., 1991.-С. 3-14.
10. Vaxtiyorova I. F. (2022). *Sources of Linguocultures and Linguoculturological Field*. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 56-60. Retrieved from <https://cajlp.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/379>
11. F.B. Irgasheva. *Die Bestandteil der Phraseologismen nach inneren struktur und ihre Übersetzungsmöglichkeiten ins usbekische*. *Учёный XXI века* 2 (7), 12-14
12. Павловская М.А. *Функции сложных предложений с определительными придаточными*. Уч. зап. ЛГПИ им. А.И. Герцена. - Л., 1958. - Т. 144. - С. 39-70.
13. Алексеева Т.А. *О структурных особенностях присубстантивно- атрибутивных сложноподчиненных предложений в современном русском языке*. *Материалы XIII Межзональной конференции языковедов Поволжья*. - Астрахань, 1970.-С. 158-161.
14. Исаева А.А. *Лексические противопоставления в частях сложноподчиненного предложения с присубстантивно-атрибутивными придаточными*. *Вопросы синтаксиса и лексики современного русского языка*. - М.: МГПИ, 1973.-С. 104-110.
15. Устинов А.М. *Синтаксическая семантика сложноподчиненного предложения*. -Иваново: Ивановский гос. университет, 1987.-68 с.

"They were both in white and their dresses were rippling and fluttering as if they had just been blown back in after a short flight around the house." - ushbu gapda bosh gap *"They were both in white"* natija munosabati bo'lib, *"their dresses were rippling and fluttering as if they had just been blown back in after a short flight around the house."* - o'xshatish, qiyoslashga asoslangan hol ergash gapli qo'shma gap (adverbial clause of comparison) hisoblanadi va ikkisi bir sintaktik tuzilmada sinkretlashadi.

"He took down his drink as if it were a drop in the bottom of a glass" - gapida esa natija va o'xshatishni kuzatish mumkin, bunda *"He took down his drink"* - natija, *"as if it were a drop in the bottom of a glass"* - esa qiyoslash sintaktik munosabatlaridir va ular birgalikda ushbu qo'shma gapda birikib keladi, qaysiki bu sinkretizmning asosiy belgisidir.

Quyidagi gapda esa hokim bo'lakda o'rin-joy sintaktik ma'nosi ifodalansa, tobe bo'lakda esa izohlash munosabati aniqlovchili ergash gapda o'z aksini topadi. *"It was sharply different from the West where an evening was hurried from phase to phase toward its close in a continually disappointed anticipation."*

"I saw that turbulent emotions possessed her, so I asked some sedative questions about her little girl." - qo'shma gapni tahlil qiladigan bo'lsak, bunda ushbu gapning hokim qismida sabab munosabati tasvirlansa, tobe qismida maqsad sintaktik munosabati aks etadi.

Ta'kidlash joizki, qo'shma gaplarda sinkretizm hodisasini tadqiq qilishda ergash gaplarning ustunligi namoyon bo'ldi.

Hamma gaplarda ergash gap semantikasining asosiy tashuvchisi ish-harakatning sifat xususiyatini beruvchi yoki uning bajarilish usulini ko'rsatadigan harakat shaklining holati vazifasini bajaradigan ergash gap bo'ladi.

Sinkretik atributiv ma'noga ega bo'lgan konstruksiyalar soni kam. Ularni M.A. Pavlovskaya, T.A. Alekseeva, A.A. Isaeva, A.M. Ustinov, E.G. Kolyanova va boshqa tilshunos olimlar sanab o'tishadi [12-15]. Bu qo'shma gaplarning ergash gapi shart yoki sababni bildiradi, bosh gapda aytilgan gaplarga zid ravishda bajariladi, ya'ni ergash gap mazmuni bosh gap mazmuniga mos kelmaydi yoki hatto unga zid keladi. Tarkibiy jihatdan qaratqich kelishigi yordamchi so'z - otga ishora qiladi, uning atributini ochib beradi, shuning uchun qo'shma gaplarda atributiv munosabatlar ham amalga oshiriladi.

Quyidagi jumlada bog'lovchi so'z *which* bilan teng ravishda ma'no jihatdan shart munosabatiga yaqin bo'lgan *though* ishlatilishi mumkin. *"This responsiveness had nothing to do with that flabby impressionability which is dignified under the name of the 'creative temperament'" = "This responsiveness had nothing to do with that flabby impressionability though it is dignified under the name of the 'creative temperament'"*.

Sabab-oqibat munosabatlari qo'shma gaplarda mantiqiy sababning konstruksiyalari, ya'ni teskari bo'ysunuvchi tuzilmalardir. Bu yerda ma'ruzachi obyektiv voqelik faktlarini tasvirlamaydi, balki sabab va oqibat haqida mantiqiy ravishda bahs yuritadi, demak, bu faktlar haqidagi fikrlar o'rtasidagi munosabatlar bunday konstruksiyalarda ifodalanadi: *In college I was unjustly accused of being a politician, because I was privy to the secret griefs of wild, unknown men.* Sabab-natija konstruksiyalarda bevosita asosiy jumladagi xulosaga ishora qiladigan yashirin bog'lanishni tiklash mumkin: *he was unjustly accused* kelib chiqqan natija bo'lsa, *his being privy to the secret griefs of wild* unga sababdir.

Semantikaning sabab va obyektiv komponentlarini o'zaro birlashtirgan gap a'zolari va ergash gaplarning sinkretizmi to'ldiruvchi shakllarining sabab ma'nosini ifodalash uchun qanday moslashtirilganligini aniq ko'rsatadi.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, ko'p sabablarga ko'ra izohlovchi qo'shma gaplarda bog'lovchi birikma *because*ni nafaqat sababiy bog'lovchi **so** bilan almashtirilishi mumkin, balki izohlovchi konstruksiyalarda ham qo'llaniladigan polisemantik birikma bilan ham almashtirilishi mumkin.

Xulosa. "The Great Gatsby" romandagi qo'shma gaplarning tahliliga yuzlanadigan bo'lsak, bunda turli xil paradigmadagi munosabatlarning sinkretizmini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun, shart- natija, payt-natija, natija -o'xshatish (qiyoslash), imkoniyat (konsessiv) - o'xshatish- maqsad, o'rin-joy - izohlash, sabab-maqsad, sabab-natija munosabatlari va ular orasida eng ko'p tarqalgani shart-natija, payt-natija va natija -o'xshatish munosabatlaridir.

Maqolada sintaksisning eng katta fikr ifodalovchisi sifatida gap, xususan qo'shma gaplar tahlil qilindi. So'zlar, ularning bir - biri bilan bog'lanishi natijasida yuzaga keladigan so'z iboralari, boglanishlar turlari va buning natijasida yuzaga keladigan gaplar hamda qo'shma gaplar o'rganildi.

Ingliz tilida ergashgan qo'shma gaplar - teng bo'lmagan gaplardan tashkil topgan gap, chunki ulardan biri bosh, ikkinchisi esa tobe bo'lib, bosh gapni izohlaydi. Bosh gap (principal clause) - mustaqil mazmunga ega. Bosh gapni izohlovchisi esa ergash gap deyiladi.

turi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Qo'shma gaplarning har bir struktur-semantik turi o'z navbatida, ushbu tipning o'zagi va periferiyasini tashkil etuvchi funksional-semantik turlarni birlashtirgan tizimdir. Qo'shma gaplarning barcha turlari periferiyalarining o'zaro ta'sirini tahlil qilarkanmiz, qo'shma gaplarni sinxroniya va diaxroniyada o'rganish hamda qo'shma gaplarning har bir strukturaviy-semantik turini maydon tizimi sifatida tavsiflashni nazarda tutuvchi kompleks qamragan holatda amalga oshiriladi.

1966-yilda "sinkretizm" atamasi Tilshunoslik terminlari lug'atining korpusiga kiritilgan, unga alohida izoh berilgan: "Sinkretizm - bu turli xil ifoda shakllarining funksional birlashuvi, qarama-qarshiliklarni (opozitsiyalarni) neytrallashtirish; turli belgilovchilar uchun belgilovchilarning mos kelishidir. Til taraqqiyoti jarayonida ma'lum bir grammatik kategoriyani amalga oshiradigan kategorik shakllar sonining qisqarishi, qolgan kategorik shakllarning funksiyalarining o'zgarishi (kengayishi) bilan birga keladi va grammatik omonimiyaga olib keladi. Lotin tilida instrumental va mahalliy ma'noni ifodalovchi ablativdir".

Sinkretizm lisoniy omofoniyaning o'ziga xos shaklidir. Omofoniya deganda talaffuzi (shakli) bir xil, ammo ma'nosi boshqacha bo'lgan ikki so'z yoki morfemaning har qanday misoli tushuniladi. Sinkretizm - bu ma'lum bir paradigma ichida yuzaga keladigan omofoniya turi bo'lib, unda Agar bir xil paradigmatic shakllar majmui umumiy xususiyat bilan bog'langan bo'lsa va ona tilida so'zlashuvchi bu shakllar orasidagi farqni ayta olmasa, bu sinkretizm deyiladi.

Sinkretik hodisalarning paydo bo'lishi til resurslarini tejash tendensiyasi bilan bog'liq. Bu ko'p jihatdan ularning xususiyatlarini belgilaydi: 1) semantikaning kondensatori sifatida harakat qilish qobiliyati, 2) bir-birini taqozo qilish imkoniyatlari (oddiy hodisalarga nisbatan), 3) ko'p funksiyalilik va 4) maxsus ekspressivlik.

Maqolada qo'shma gaplar strukturaviy-semantik tasnifining zamonaviy varianti taqdim etilgan bo'lib, u tranzitivlik va sinkretizmni hisobga olgan holda semantik jihatdan takomillashtirilgan. Ilmiy ishda V.V Babaitseva tomonidan taklif qilingan o'tish shkalasi yordamida turli xil va ko'rinishdagi qo'shma gaplarning ko'p o'lchovli munosabatlari tahlil qilinadi.

"Whenever you feel like criticizing any one, just remember that all the people in this world haven't had the advantages that you've had." - Fitzjeraldning romanidan ushbu ergash gapli qo'shma gapni tahlil qilarkanmiz, *"Whenever you feel like criticizing any one"* - ergash gap bo'lib, shart munosabatini ifodalasa, *"just remember that all the people in this world haven't had the advantages that you've had."* - hokim qismida natija munosabatini bildiradi va bir qo'shma gapda ushbu ikki munosabat sinkretlashadi.

"After boasting this way of my tolerance, I come to the admission that it has a limit." - ergash gapli qo'shma gapda payt munosabati va natija munosabatini sinkretlashganini kuzatish mumkin, bunda:

After boasting this way of my tolerance – payt

I come to the admission – natija

Yozuvchining quyidagi gapida ham ushbu ikki munosabatning sinkretlashuviga guvoh bo'lishimiz mumkin: *"When I came back from the East last autumn, I wanted no more riotous excursions with privileged glimpses into the human heart."*

Quyidagi tahlil qilinadigan hol ergash gapli qo'shma gapda esa shart va natija munosabatini kuzatish mumkin: *"If personality is an unbroken series of successful gestures, then there was something gorgeous about him"*, bunda *"If personality is an unbroken series of successful gestures"* – tobelangan qismida shart ma'nosi aks etsa, *"then there was something gorgeous about him"* - hokim qismida natija munosabatini kuzatish mumkin.

"There was some heightened sensitivity to the promises of life about him, as if he were related to one of those intricate machines that register earthquakes ten thousand miles away." - asardagi ushbu gapda esa natija sintaktik munosabati o'xshatish munosabati bilan sinkretizm hodisasiga uchraydi. Quyida berilgan asardagi hol ergash gapli qo'shma gapda ham imkoniyat, ham natija (Adverbial Clauses of Result) munosabatini ko'rish mumkin, garchi bularning ikkisi ham hol ergash gaplarga tegishli bo'lsa ham, ular alohida-alohida guruhlardir va ular qisman sinkretizm hodisasiga uchraydi deya olamiz: *"I enjoyed the counter-raid so thoroughly that I came back restless"*. *"Instead of being the warm center of the world, the middle-west now seemed like the ragged edge of the universe, so I decided to go east and learn the bond business"* - qo'shma gapda esa ikki emas balki ko'proq munosabatlarning sinkretlashuvi tahlil qilindi, bunda:

- *Instead of being the warm center of the world* – konsessiv munosabat (adverbial clauses of concession)

- *the middle-west now seemed like the ragged edge of the universe* – o'xshatish (adverbial clauses of comparison)

- *so I decided to go east and learn the bond business* – maqsad (adverbial clause of purpose)

**INGLIZ TILIDAGI QO`SHMA GAPLARDA SINTAKTIK MUNOSABATLAR
SINKRETIZMINING FUNKSIONAL TADQIQI**

Sirojova Zarnigor Nasriddinovna

*Buxoro davlat universiteti tarjimashunoslik va lingvodidaktika
kafedrası o`qituvchisi
sirojova1994@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi sintaktik, sintaktik-semantik, sintaktik-struktur munosabatlar va ularning sinkretizm hodisasiga uchrashi va bunda uning vazifalari funksional tahliliga bag`ishlangan bo`lib, ilmiy ishimizda Frensis Skot Fitzjeraldning "Buyuk Getsbi" asarida qo`shma gaplarning qo`shimcha ma`nosi bo`yicha sinkretik komponentli konstruksiyalarni tahlil qildik.

Kalit so`zlar: sintaksis, semantik-struktur munosabatlar, sintaktik munosabatlar, sinkretizm, qo`shma gaplar, bog`lovchilar, tobe va hokim munosabatlar, ergash gaplar.

Abstract. This article is devoted to the functional analysis of syntactic, syntactic-semantic, syntactic-structural relationships in the English language and their encounter with the phenomenon of syncretism and its functions. We analyzed the constructions with syncretic components.

Keywords: Syntax, semantic-structural relations, syntactic relations, syncretism, conjunctions, conjunctions, subordinate and dominant relations, subordinate clauses.

Аннотация. Данная статья посвящена функциональному анализу синтаксических, синтаксико-семантических, синтаксико-структурных отношений в английском языке и их встрече с явлением синкретизма и его функциями. Мы проанализировали конструкции с синкретическими компонентами.

Ключевые слова: Синтаксис, семантико-структурные отношения, синтаксические отношения, синкретизм, союзы, подчинительные и доминирующие отношения, придаточные предложения.

Kirish. Zamonaviy ingliz tilining sintaktik birliklarini, aloqa va munosabatlarini, bog`lovchilarni o`rganish, ularni tadqiq qilish doimo tilshunoslarning diqqat e`tiborini tortgan. Ko`pgina sintaktik-lisoniy birliklar va hodisalar, grammatik kategoriyalar va ularning o`rtasidagi differensiyalar zamonaviy tilshunoslar tomonidan tasniflangan. Ammo, shunga qaramay, sintaksisda shunday birliklar va grammatik hodisalar borki, ular turli sintaktik kategoriyalarga mansub bo`lib, ularning kombinatsiyasi sinkretizm bilan ifodalanadi. Maqolani yozar ekanmiz, quyidagi vazifalarni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydik:

- ingliz tilida qo`shma gaplar shakllanishi hamda o`ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- ingliz va o`zbek tilida qo`shma gaplarda sintaktik munosabatlar, ularning qamrovi va mohiyatini aniqlash;
- sintaktik munosabatlar bo`yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda bayon etilgan nazariy asoslarni belgilash;
- sintaktik munosabatlarda sinkretizm tamoyillarini aniqlash, ularning nutqdagi funksional ahamiyatini yoritib berish;

Ilmiy ishda biz sinkretizmni ratsional va hissiy fikrlashga xos bo`lgan va tilda namoyon bo`ladigan kompleks, o`zaro qarama-qarshi leksik, sintaktik va grammatik ma`nolarni ifodalaydigan yagona universal til hodisasi sifatida ko`rib chiqamiz.

Xo`sh, unda sinkretizm o`zi nima va u qanday ma`no anglatadi?

"Sinkretizm" (sinkretizm) so`zi yunoncha "bog`lanish" degan ma`noni anglatadi. "Sinkretizm" atamasi maxsus adabiyotlarda tez-tez ishlatiladi. Ushbu atamaning mazmuni tadqiq sohasiga qarab o`zgaradi.

Lingvistik atama sifatida "sinkretizm" atamasiga murojaat qilsak, ushbu atama o`zining lingvistik ma`nosida L.Elmslev tomonidan taklif qilingan, deb hisoblanadi, uning asarida sinkretizm tushunchasi tilning umumiy mulki sifatida keltirilgan. Biroq dastlab bu atama oldinroq morfologik tadqiqotlarda paydo bo`lgan desak adolatdan bo`ladi. B.K. Juravlevning so`zlariga qaraganda hol sinkretizmini ilk bor B. Delbryuk tomonidan 1907-yilda qayd etilgan.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, sintaktik munosabatlarning ayrimlari obyektiv dunyodagi predmetlar, voqealar, belgilar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ayrimlari esa inson tafakkuriga xos bo'lib, hukm qismlari bo'lmish tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi. Masalan, sintaktik munosabatlarning birinchi turiga misol sifatida shart, natija munosabatlarini keltirish mumkin.

Sintaktik munosabatlarning soni hali aniqlanmagan. An'anaviy tilshunoslikda odatda to'rtta sintaktik munosabat tilga olinadi. Ular predikativ, attributiv, obyektiv, holat (adverbial) munosabatlari bo'lib, ularning ayrimlari bir qancha ko'rinishga ega. Biz qo'limizdagi mavjud adabiyotlardan foydalangan holda va o'z kuzatuvlarimizga asoslangan holda sintaktik munosabatni quyidagi ro'yxatini tuzdik: shart, natija, to'siqsizlik (konssesiv), payt, joy, sabab, maqsad va h.k.

Qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlarning sinkretizmi deganda biz bir murakkab sintaktik qurilmada bir necha oppozitsiya hosil qiluvchi qarama-qarshi munosabatlarning birga qo'llanilishi deb ataymiz.

Tadqiqot ishining amaliy qismida qo'shma gaplar funksional sintaktik tadqiqida ingliz va o'zbek tillarida ergashgan qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlarning sinkretizm hodisasiga uchrashida o'ziga xos o'xshash va farqli tomonlari mavjudligi aniqlandi.

Metodlar. Maqolani yozishda va ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- induksiya tamoyiliga asoslangan lingvistik tavsif usuli: xususiydan umumiyga, faktlarni tahlil qilishdan ularni umumlashtirish va xulosalar chiqarishgacha;

- gradatsiya usuli, qo'shma gaplarda bosh va tobe bo'laklarning komponentlarini o'rganish imkonini beradi;

- transformatsion tahlil va uning varianti sifatida qo'shma gaplar strukturasi va semantikasidagi tashqi yashirin tafovutlar yoki ularning muayyan umumiylikni aniqlash uchun foydalaniladigan lingvistik eksperiment usuli.

- har xil turdagi yadroviy qo'shma gaplarning oppozitsiyaga asoslangan va murakkab tuzilmalar tizimidagi sinkretik holatlarni ko'rishga yordam beradigan oppozitsion tahlil, xususan, ushbu tahlilda tranzitivlik holati qo'llanildi;

- har xil funksional semantik maydonda qo'shma gaplar o'rtasidagi munosabatni tasavvur qilish imkonini beruvchi modellashtirish usuli;

- eng tez-tez uchraydigan sinkretik periferik qo'shma gaplarni hisoblash uchun ishlatiladigan materiallarni qayta ishlashning statistik usuli.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Buyuk Sovet Ensiklopediyasida ham sinkretizm tushunchasi o'z aksini topgan. Shunisi qiziqki, unda sinkretizmga bag'ishlangan ikkita maqola mavjud: birinchisi adabiy-falsafiy talqiniga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi atamaning lingvistik talqiniga asoslangan. Tilshunoslikda sinkretizm "ilgari rasmiy ravishda ajratilgan grammatik kategoriyalarning (ma'nolarning) bir shaklga qo'shib, natijada polisemantik (ko'p funksiyali) bo'lib qolishi" deb ta'riflanadi. Quyida lotin ablativiga misol keltirilgan. E'tibor bering, gap "nafaqat morfologiyada, balki sintaksisda ham namoyon bo'ladigan" grammatik sinkretizm haqida ketmoqda.

Sintaktik tizimni nafaqat tipik, balki sinkretik konstruksiyalarni ham hisobga olgan holda strukturaviy-sintaktik va semantik tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki u tipik va o'zgaruvchan sintaktik hodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni neytrallash, ularning o'zaro ta'siri va o'zaro aloqaga kirishishini ko'rsatish, ularni farqlash qobiliyatiga ega munosabatdir. Bu jarayonlar, ayniqsa, murakkab gaplar tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Sintaktik tizimni nafaqat tipik, balki sinkretik konstruksiyalarni ham hisobga olgan holda strukturaviy-sintaktik va semantik tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki u tipik va o'zgaruvchan sintaktik hodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni neytrallash, ularning o'zaro ta'siri va o'zaro aloqaga kirishishini ko'rsatish, ularni farqlash qobiliyatiga ega munosabatdir. Bu jarayonlar, ayniqsa, murakkab gaplar tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda morfologik xarakterdagi tranzitivlik hodisalari - zamonaviy ingliz tilidagi sintaktik munosabatlarning sinkretizmi V.V.Babaitseva, A.Ya.Bauder, I.V.Vysotskaya va boshqalar tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Sintaktik tranzitivlikni tavsiflash, xususan, qo'shma gaplar sinkretizmi bilan bog'liq muammolar hali ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Ushbu maqolada biz tipik va sinkretik qo'shma gaplarni yagona tizimga - "Murakkab bo'ysunuvchi jumlar" funksional-semantik maydoniga birlashtirish, ushbu sohada boshqa, kichikroq, turli qo'shma gaplarga tegishli bo'lgan sinkretik periferik qo'shma gaplarning o'zaro kesishmasida o'z yadrolari va sinkretik periferiyalari mavjud bo'lgan maydonlarni ajratish haqida gapiramiz. Bularning barchasi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Qo'shma gaplar sintaktik, morfologik, leksik sinkretizm turli til darajalarining tarkibiy va semantik komponentlarini birlashtiradi, bu bizga qo'shma gaplar tizimini funksional semantik maydonning maxsus

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaraganda, sintaktik munosabatlarning ayrimlari obyektiv dunyodagi predmetlar, voqealar, belgilar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Ayrimlari esa inson tafakkuriga xos bo'lib, hukm qismlari bo'lmish tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi. Masalan, sintaktik munosabatlarning birinchi turiga misol sifatida shart, natija munosabatlarini keltirish mumkin.

Sintaktik munosabatlarning soni hali aniqlanmagan. An'anaviy tilshunoslikda odatda to'rtta sintaktik munosabat tilga olinadi. Ular predikativ, attributiv, obyektiv, holat (adverbial) munosabatlari bo'lib, ularning ayrimlari bir qancha ko'rinishga ega. Biz qo'limizdagi mavjud adabiyotlardan foydalangan holda va o'z kuzatuvlarimizga asoslangan holda sintaktik munosabatini quyidagi ro'yxatini tuzdik: shart, natija, to'siqsizlik (konssesiv), payt, joy, sabab, maqsad va h.k.

Qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlarning sinkretizmi deganda biz bir murakkab sintaktik qurilmada bir necha oppozitsiya hosil qiluvchi qarama-qarshi munosabatlarning birga qo'llanilishi deb ataymiz.

Tadqiqot ishining amaliy qismida qo'shma gaplar funksional sintaktik tadqiqida ingliz va o'zbek tillarida ergashgan qo'shma gaplarda sintaktik munosabatlarning sinkretizm hodisasiga uchrashida o'ziga xos o'xshash va farqli tomonlari mavjudligi aniqlandi.

Metodlar. Maqolani yozishda va ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- induksiya tamoyiliga asoslangan lingvistik tavsif usuli: xususiyydan umumiyga, faktlarni tahlil qilishdan ularni umumlashtirish va xulosalar chiqarishgacha;

- gradatsiya usuli, qo'shma gaplarda bosh va tobe bo'laklarning komponentlarini o'rganish imkonini beradi;

- transformatsion tahlil va uning varianti sifatida qo'shma gaplar strukturasi va semantikasidagi tashqi yashirin tafovutlar yoki ularning muayyan umumiylikni aniqlash uchun foydalaniladigan lingvistik eksperiment usuli.

- har xil turdagi yadroviiy qo'shma gaplarning oppozitsiyaga asoslangan va murakkab tuzilmalar tizimidagi sinkretik holatlarni ko'rishga yordam beradigan oppozitsion tahlil, xususan, ushbu tahlilda tranzitivlik holati qo'llanildi;

- har xil funksional semantik maydonda qo'shma gaplar o'rtasidagi munosabatni tasavvur qilish imkonini beruvchi modellashtirish usuli;

- eng tez-tez uchraydigan sinkretik periferik qo'shma gaplarni hisoblash uchun ishlatiladigan materiallarni qayta ishlashning statistik usuli.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Buyuk Sovet Ensiklopediyasida ham sinkretizm tushunchasi o'z aksini topgan. Shunisi qiziqki, unda sinkretizmga bag'ishlangan ikkita maqola mavjud: birinchisi adabiy-falsafiy talqinga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi atamaning lingvistik talqiniga asoslangan. Tilshunoslikda sinkretizm "ilgari rasmiy ravishda ajratilgan grammatik kategoriyalarning (ma'nolarning) bir shaklga qo'shilib, natijada polisemantik (ko'p funksiyali) bo'lib qolishi" deb ta'riflanadi. Quyida lotin ablativiga misol keltirilgan. E'tibor bering, gap "nafaqat morfologiyada, balki sintaksisda ham namoyon bo'ladigan" grammatik sinkretizm haqida ketmoqda.

Sintaktik tizimni nafaqat tipik, balki sinkretik konstruksiyalarni ham hisobga olgan holda strukturaviy-sintaktik va semantik tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki u tipik va o'zgaruvchan sintaktik hodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni neytrallashtirish, ularning o'zaro ta'siri va o'zaro aloqaga kirishishini ko'rsatish, ularni farqlash qobiliyatiga ega munosabatdir. Bu jarayonlar, ayniqsa, murakkab gaplar tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Sintaktik tizimni nafaqat tipik, balki sinkretik konstruksiyalarni ham hisobga olgan holda strukturaviy-sintaktik va semantik tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki u tipik va o'zgaruvchan sintaktik hodisalar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni neytrallashtirish, ularning o'zaro ta'siri va o'zaro aloqaga kirishishini ko'rsatish, ularni farqlash qobiliyatiga ega munosabatdir. Bu jarayonlar, ayniqsa, murakkab gaplar tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda morfologik xarakterdagi tranzitivlik hodisalari - zamonaviy ingliz tilidagi sintaktik munosabatlarning sinkretizmi V.V.Babaitseva, A.Ya.Bauder, I.V.Vysotskaya va boshqalar tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Sintaktik tranzitivlikni tavsiflash, xususan, qo'shma gaplar sinkretizmi bilan bog'liq muammolar hali ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Ushbu maqolada biz tipik va sinkretik qo'shma gaplarni yagona tizimga - "Murakkab bo'ysunuvchi jumlar" funksional-semantik maydoniga birlashtirish, ushbu sohada boshqa, kichikroq, turli qo'shma gaplarga tegishli bo'lgan sinkretik periferik qo'shma gaplarning o'zaro kesishmasida o'z yadrolari va sinkretik periferiyalari mavjud bo'lgan maydonlarni ajratish haqida gapiramiz. Bularning barchasi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Qo'shma gaplar sintaktik, morfologik, leksik sinkretizm turli til darajalarining tarkibiy va semantik komponentlarini birlashtiradi, bu bizga qo'shma gaplar tizimini funksional semantik maydonning maxsus